



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025 yil 1 may, № 88 (8983)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISHGA QARATILGAN HAYOTIY TAKLIFLAR VA USTUVOR VAZIFALAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev 30-aprel kuni nodavlat ta'lim xizmatlari tizimini takomillashtirish, oliy va kasbiy ta'limda sifatni oshirish chora-tadbirlari taqdimoti bilan tanishdi.

Iqtisodiyot tarmoqlari rivoji hamda investitsiyaviy muhit, eng avvalo, kadrlar salohiyati bilan chambarchas bog'liq. Shu bois oliy va kasbiy ta'lim tizimi doimiy takomillashtirib borilmoqda.

So'nggi yillarda ta'lim sohasida xususiy sektorga berilgan imkoniyatlar tufayli 71 ta xususiy oliygo'ha va 51 ta xususiy texnikum tashkil etilib, ularda 500 ming nafarga yaqin talaba va o'quvchilar tahsil olmoqda. Buning natijasida mamlakatda oliy ta'lim bilan qamrov 9 foizdan 42 foizga oshdi.

Albatta, bugungacha amalga oshirilgan ishlar ko'plab yoshlarning kasbiy va oliy ma'lumot olishiga imkon yaratdi. Ammo nodavlat ta'lim

tashkilotlarining barchasida ham ta'lim sifati birdek ta'minlanmagan.

Nodavlat ta'lim tashkilotlarida qabul parametrlari, ta'lim dasturlari, o'quv jarayonlari hamda ilmiy salohiyatni sifat jihatdan yaxshilash, ularni zamonaviy mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish eng asosiy masalalardan biridir.

Shu bois taqdimotda nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatishni tartibga solish, litsenziyalash tizimini takomillashtirish hamda davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish bo'yicha yangi tizimni joriy etishga qaratilgan takliflar muhokama qilindi.

Bu borada ilg'or xorijiy tajribalar asosida ikki bosqichli

litsenziyalash tizimiga o'tish, ta'lim dasturlarini maxsus akkreditatsiyadan o'tkazish hamda har besh yilda kompleks davlat akkreditatsiyasini tashkil etish bo'yicha takliflar bildirildi.

Shuningdek, taqdimotda rivojlangan davlatlarning eng ilg'or tajribasidan kelib chiqqan holda ta'lim sifati tashqi baholash bilan shug'ullanuvchi alohida mustaqil tuzilma tashkil etish hamda sifat nazoratining shaffof, xolis va adolatli tizimini joriy qilish tashabbusi ham ilgari surildi.

Ta'lim sifati ta'minlash va tashqi baholashning joriy etilishi kasbiy va oliy ta'lim muassasalarida o'qitish samaradorligi va ilmiy salohiyatini oshirib, ularning xalqaro reytinglardagi o'rini yaxshilashga xizmat qiladi.

## XORAZMNING TARIXIY-ILMIY VA TURIZM SALOHİYATI BILAN UYG'UN ZAMONAVIY MAJMUA

Prezident Shavkat Mirziyoyev Al-Xorazmiy universitetini tashkil etish bo'yicha taqdimot bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari 2022-yil avgustda Urganch shahridagi Al-Xorazmiy shaharchasi qurilishiga asos solgan edi. U yerda buyuk olim nomidagi universitet va ixtisoslashtirilgan maktab ham bo'ladi.

Taqdimotda mazkur ta'lim maskanlarini tashkil etish chora-tadbirlari, asosiy yo'nalishlari haqida axborot berildi.

Universitetda 3 ta: matematika va informatika, aerokosmik texnologiyalar muhandisligi hamda sun'iy intellekt fakulteti bo'ladi. Ularda iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, sanoat, xavfsizlik, energetika va ekologiya kabi sohalar uchun mutaxassislar tayyorlanadi. Darslar o'zbek va ingliz tillarida, kredit-modul tizimi asosida olib boriladi.

O'quv jarayonlari "Yangi O'zbekiston" universitetining tajribasi asosida,

Birlashgan Arab Amirliklari, Xitoy Xalq Respublikasi, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning nufuzli oliy ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda tashkil etiladi.

Qabulni 2025/2026 o'quv yilidan boshlash rejalashtirilgan. Jami talabalar soni 4 – 6 ming atrofida bo'lishi ko'zda tutilgan.

Shaharcha hududida Toshkentdagi Muhammad al-Xorazmiy maktabining filiali ham tashkil etiladi. Unga 4-sinf bitiruvchilari tanlab olinadi. Ta'limning yakunlovchi 2 yili muhandislikka boshlang'ich tayyorgarlikka qaratiladi.

Davlatimiz rahbari universitet hududi nafaqat ta'lim, balki Xorazmning tarixiy-ilmii va turizm salohiyati bilan uyg'un majmua bo'lishi kerakligini ta'kidladi. Ushbu zamonaviy ta'lim muassasalarini tashkil etishga oid hujjat imzolandi.

O'ZA.



Konferensiya

## MOTURIDIYLIK — BAG'RIKENGLIK, MO'TADILLIK VA MA'RIFAT TA'LIMOTI

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyatda diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, buyuk alloma va mutafakkirlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini chuqur o'rganish bo'yicha puxta o'ylangan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu ezgu ishlarning uzviy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Imom Moturidiy ta'limotining 1155-yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori asosida 29-30-aprel kunlari Samarqand shahrida "Moturidiylik – bag'rikenglik, mo'tadillik va ma'rifat ta'limoti" mavzuida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

Anjumanda Misr, Turkiya, Malayziya, Buyuk Britaniya, Indoneziya, BAA, Saudiya Arabistoni, Kuvayt, Qatar, Pokiston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston kabi 26 ta davlatdan 70 dan ziyod mutayillar, nufuzli islomshunos olimlar, moturidiyshunos tadqiqotchilar, tarixshunos, faylasuf mutaxassislar, davlat va jamoat arboblari, diniy-ma'rifiy soha vakillari qatnashdi.

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaning ochildish marosimi Qur'on oyatlari tilovati bilan boshlandi.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigini Prezident maslahatchisi Ruslanbek Davletov o'qib eshittirdi.

Tabrikda qayd etilganidek, yangi O'zbekistonda islom sivilizatsiyasi rivojiga bebaho hissa qo'shgan allomalarning ibratli hayot yo'li va boy ilmiy-ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va keng targ'ib etish, yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy kabi buyuk allomalarning nomlari bilan ataladigan xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi faoliyat ko'rsatmoqda.



## O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining oltinchi yalpi majlisi to'g'risida AXBOROT

30-aprel kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining oltinchi yalpi majlisi o'z ishini davom ettirdi.



Unda Senat, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralarning vakillari, mahalliy Kengashlarning deputatlari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Video-konferensaloqa tarzida o'tkazilgan yalpi majlisni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Yalpi majlis Senatning "YouTube"

tarmog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib borildi.

Yalpi majlisning ikkinchi ish kuni senatorlar tomonidan dastlab "Aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

Mazkur qonun aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimini yanada

takomillashtirishga qaratilgan. Qonun bilan aholiga pensiya tayinlash tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini foydalanib etgan holda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada oshirish maqsadida "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunga pensiya olish yoshiga to'lgan (eraklar 60 yosh, ayollar 55 yosh) fuqarolarga yoshga doir pensiyani ularning alohida murojaatini talab

etmagan holda proaktiv shaklda tayinlash tartibini belgilashga oid o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Mazkur tartib amaliyotga tatbiq etilishi natijasida fuqarolardan pensiya tayinlash uchun Pensiya jamg'armasining hududiy bo'linmasiga yoki Davlat xizmatlari markaziga murojaat qilish talab etilmaydi.

Bundan tashqari, pensiya yoshiga yetgan fuqarolarga

qonunchilikda belgilangan talablar doirasida pensiya tayinlash haqida qaror qabul qilinganida ularning telefon raqamlariga pensiya tayinlanganligi va uning miqdori to'g'risida SMS xabar yuboriladi.

Qonunda, shuningdek, fuqaro pensiya yoshiga yetib, ammo mehnat faoliyatini davom ettirib, keyinroq yoshga doir pensiya olish istagi bo'lganida proaktiv shaklda tayinlangan yoshga doir pensiyani rad qilish tartibini ham joriy etish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, qonunga asosan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga barcha nafaqalarni tayinlash va to'lash ijtimoiy himoya milliy agentligi vakolatiga o'tkazilgan munosabati bilan "Davlat boji to'g'risida"gi va "Aholi bandligi to'g'risida"gi qonunlarga ham o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Senatorlarning fikricha, belgilanayotgan normalar fuqarolarga pensiya ta'minoti bo'yicha ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini oshirishga hamda ortiqcha byurokratik to'siqlar bartaraf etilishiga xizmat qiladi.

Qizg'in muhokamadan so'ng qonunning dolzarbligi va zarurligini e'tiborga olib, u senatorlar tomonidan ma'qullandi.



## HAMKORLIK ISTIQBOLLARI MUHOKAMASI

Kecha Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Yaponiya adliya vaziri, Yaponiya parlamenti Vakillar palatasi deputati Keysuke Suzuki bilan uchrashuv o'tkazdi.

### Uchrashuv

Suhbat chog'ida O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi hamkorlikning bugungi holati hamda uni rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi, bunda parlamentlararo muloqotni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi.

Jumladan, "Yaponiya – O'zbekiston" do'stlik guruhlari faoliyatini jadallashtirish.

parlament qo'mitalari o'rtasida muntazam muloqotni yo'lga qo'yish, shuningdek, qonun ijodkorligi, parlament nazorati va hududiy vakillik organlari faoliyati sohalarida tajriba almashish muhimligi qayd etildi.

Uchrashuv yakunida tomonlar O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi do'stona munosabatlarni yanada mustahkamlashga hamda amaliy hamkorlikka tayyorligini bildirdi.

"Xalq so'zi".

### Komissiya yig'ilishi

## MUAMMOLAR YECHIMIGA YO'NALTIRILGAN GRANTLAR

Kecha Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi.

Unda shu yilning mart-aprel oylarida respublika bo'yab amalga oshirilgan o'rganishlar natijalari va fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar muhokama qilindi.

O'rganishlar davomida ishchi

guruh a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi, barcha viloyatlar va Toshkent shahrida bo'lib, 100 dan ortiq viloyat Kengashlari hamda 600 dan ziyod tuman Kengashlari deputatlari ishtirokida aholi bilan bevosita muloqotlar o'tkazdi. Uchrashuvlarda "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga

oshirish, ekologik muammolarni bartaraf etish, nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilish, aholining bandligi va ijtimoiy himoyasi kabi dolzarb masalalarga alohida e'tibor qaratildi.

Parlament komissiyasi majlisida ushbu masalalar chuqur tahlil qilinib, ayrim muammolar tegishli ijro organlari bilan hamkorlikda hal etilgani, erishilgan natijalar vaqtincha emas, balki tizimli va barqaror bo'lishi lozimligi ta'kidlandi.



## INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING ENG OLIY MEZONI

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 1-moddasida O'zbekiston ijtimoiy davlat ekanligi belgilangan. Ijtimoiy davlat g'oyasi fuqarolar farovonligiga erishish, kam ta'minlangan qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim va tibbiyot sohalarida teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan davlat siyosatidir.

### Mushohada

O'zbekistonning ijtimoiy davlat sari qadam tashlashi – dunyodagi rivojlangan mamlakatlari tajribasidan kelib chiqqan holda milliy xususiyatlarga mos shakllangan istiqbolli yo'nalishdir. Eng muhimi, bu yo'lda inson qadri, adolat, tenglik va imkoniyatlar markazga qo'yilmoqda. Ijtimoiy davlat – bu nafaqat hozirgi aholi uchun, balki ertangi avlodga ham munosib hayot barpo etish kafolati.

So'nggi yillarda O'zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ushbu konstitutsiyaviy g'oyani hayotga tatbiq etishga yo'naltirilgan keng ko'lami islohotlar amalga oshirildi. Ularda kambag'allikni qisqartirish, aholi farovonligini ta'minlash va adolatli jamiyat yaratish

asosiy maqsad qilib belgilangan.

2023-2024-yillarda bu jarayon yanada faollashib, o'nga yaqin muhim dasturlar va huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, 2023-yil 1-iyundagi aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatishga qaratilgan Farmon bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi.

Aholining ijtimoiy himoyasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar mazmunan yangilanmoqda. Hozirga qadar o'nga yaqin yangi qonunlar qabul qilindi va ellikdan ortiq qonunosti hujjatlari ishlab chiqildi. Ularda nogironligi bo'lgan shaxslar, yolg'iz qariyalar va ko'p bolali oilalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari takomillashtirildi.



# O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining oltinchi yalpi majlisi to'g'risida AXBOROT

Shundan keyin yalpi majlisda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga ba'zi turdagi tamaki mahsulotlarining, tamakini va nikotinni iste'mol qilish moslamalarining muomalasiga doir talablarni yanada kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, mamlakatimizda aholi o'rtasida, ayniqsa, bolalar va yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, shu jumladan, tamaki mahsulotlari tarqatilishining va iste'mol qilinishining oldini olish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, so'nggi yillarda tamaki mahsulotlarining yangi turlarini, xususan, nikotin yetkazib berishning elektron tizimlarini, shu jumladan, elektron sigaretalarni qonunga xilof ravishda mamlakatimizga olib kirish hamda muomalaga kiritish hollari ko'paymoqda.

Shu munosabat bilan tamaki mahsulotlarining, nikotin yetkazib berishning elektron tizimlarining, shu jumladan, elektron sigaretalarning va ular uchun suyuqliklarning muomalasini mamlakatimiz hududida taqiqlash, ularni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish, shuningdek, tamakini qizdirish tizimlarini qonunga xilof ravishda muomalaga kiritgani uchun javobgarlikni belgilash zarurati yuzaga kelmoqda.

Qonun bilan Jinoyat kodeksiga va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga muomalasi taqiqlangan tamaki mahsulotlarini, nikotin yetkazib berishning elektron tizimlarini, shu jumladan, elektron sigaretalarni va ular uchun suyuqliklarni ishlab chiqarish, tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki o'tkazish, shuningdek, olib kirish va olib chiqish uchun javobgarlik belgilanishini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Ushbu qonun nafaqat aybdor shaxslarni jazolashga qaratilganligi bilan, balki sodir etgan noqonuniy harakatlari to'g'risida o'z ixtiyori bilan hokimiyat organlariga arz qilgan va muomalasi taqiqlangan mahsulotlarni topshirgan shaxslarni javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutishi bilan ham ahamiyatli ekanligi qayd etildi.

Senatorlar tomonidan qonun aholining hayoti va sog'lig'ini himoya qilishga, millat genofondini saqlashga hamda atrof-muhitni tamaki va nikotin mahsulotlarining yangi turlaridan muhofaza qilishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Muhokama yakunida qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Senatning yalpi majlisida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda yer va suv resurslarini muhofaza qilishga qaratilgan ichkil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, hozirgi vaqtda bo'sh turgan yerlarni hisobga olish, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni yer fondining boshqa toifasiga o'tkazish mexanizmlarini takomillashtirish, huquq egalari uchun uchastkalarini olganlik uchun haq to'lashni amalga oshirish

yuzasidan mas'uliyatini kuchaytirish zarurati tug'limoqda.

Shuningdek, yer osti suvlarini yerlarni sug'orish va boshqa maqsadlar uchun olish keskin o'sganligi, shuningdek, quduqlarni ruxsatsiz burg'lash va suvlardan nazoratsiz, hisobga olmasdan foydalanish hollari davom etayotganligi sababli yer osti suv resurslarini muhofaza qilish choralari kuchaytirish ham zarur.

Qonun bilan Yer kodeksiga davlat mulkidagi bo'sh turgan yerlarning hisobga olinishini tashkil etishni, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarida ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turiga mos bo'lgan obyektlarni joylashtirishni, yer uchastkalarini olganlik uchun haq belgilangan muddatlarda to'lanmaganda yer uchastkalariga bo'lgan huquqni bekor qilishni nazarda tutuvchi qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Shuningdek, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning turlariga aniqlik kiritilmoqda, sug'oriladigan yerlarni yer fondining boshqa toifasiga yoki sug'orilmaydigan yerlar toifasiga o'tkazish bo'yicha aniq talablar belgilanmoqda, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi ishlab chiqarishining nobudgarchiliklari o'rinni qoplash zarur bo'lgan hollar kengaytirilmoqda.

"Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi qonunda yer osti suvlariga quduqni burg'lash uchun ruxsatnoma berish o'rniga yer osti suvlariga quduqlarni burg'lash faoliyatiga ruxsatnoma berish tartibini joriy etish belgilanmoqda. Jumladan, Soliq kodeksida yer osti suvlaridan foydalanuvchilar tomonidan suvni hisobga olish vositalarisiz suv olinganida soliq to'lovini belgilangan soliq stavkasining besh baravari miqdorida undirish nazarda tutilmoqda.

"O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida"gi qonunga ma'muriy-hududiy birliklarning davlat reestriga obyektni ma'muriy-hududiy belgilashning tizimli kodi to'g'risidagi axborot aks ettirilishiga qaratilgan o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Senatorlar tomonidan ta'kidlanganidek, qonunning qabul qilinishi yerlarni muhofaza qilish va yer uchastkalaridan foydalanish samaradorligini oshirishga, Ma'muriy-hududiy birliklar davlat reestrining axborot tizimini takomillashtirishga, shuningdek, yer osti suvlaridan qonunga xilof ravishda foydalanishning oldini olishga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shu bilan birga, majlisda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvidagi rolini oshirish, shuningdek, jamoatchilik nazoratini, ijtimoiy sheriklikni takomillashtirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy sohada



Yunus BO'RIVEV olgan sur'atlar.

jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining erkinligi kafolatlarini mustahkamlash hamda homiylik xayriyalarini yig'ish tartibini aniq belgilash zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashganlik, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish natijalari bo'yicha tayyorlangan yakuniy hujjatni ko'rib chiqqanlik, homiylik to'g'risidagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun javobgarlik belgilanmoqda, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini amalga oshirish tartibini buzganlik uchun javobgarligi qayta ko'rib chiqilmoqda.

"Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonunlarga fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Shuningdek, fuqarolik jamiyatini institutlariga davlat organlari tomonidan bevosita davlat ijtimoiy buyurtmalari berilishining yangi mexanizmlari belgilanmoqda.

O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlaridagi nodavlat notijorat tashkilotlarining majburiyatlari, ularni davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish asoslari qayta ko'rib, qayta ro'yxatdan o'tkazganlik uchun davlat boji miqdori, shuningdek, homiylik faoliyatini amalga oshirish tartibi aniqlashilmoqda.

"Jamoat fondlari to'g'risida"gi Qonunga jamoat fondi muassisligiga bo'lgan talablar kuchaytirilishini, jamoat fondini davlat ro'yxatidan o'tkazish shartlari va tartibi aniqlashilishini, jamoat fondining mol-mulkidan foydalanish yanada erkinlashtirilishini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Bir kalendar yilda bank hisobvayraqalarida pul aylanmasi mavjud bo'lmagan jamoat fondi uchun ushbu kalendar yilda o'z faoliyatini auditorlik

tekshiruvdan o'tkazish ixtiyoriy tartibda amalga oshirilishi belgilanmoqda.

"Homiylik to'g'risida"gi Qonunga xayriya qutillaridan foydalanish tartibini belgilovchi, olingan homiylik xayriyalarini hisobga olish va ular to'g'risidagi axborotni oshkor etish hamda homiylik xayriyalarini yig'ish tartibini takomillashtiruvchi normalar kiritilmoqda.

Muhokama davomida senatorlar tomonidan ushbu qonun fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga, uning samaradorligini oshirishga, shuningdek, ijtimoiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Muhokama yakunida qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shuningdek, yalpi majlisda "O'zbekiston Respublikasi bilan Ozarbayjon Respublikasi o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi Shartnoma (Toshkent, 2024-yil 23-avgust) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonun muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, qonun bilan ratifikatsiya qilinayotgan mazkur Shartnoma O'zbekiston va Ozarbayjon Prezidentlari tomonidan 2024-yil 23-avgust kuni Toshkent shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi va Ozarbayjon Respublikasi Davlatlararo oliy kengashining birinchi yig'ilishi doirasida imzolangan.

Mazkur Shartnoma ikki davlat mustaqilligi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va barqaror iqtisodiy rivojlanishini yanada mustahkamlashga qaratilgan davlatlararo munosabatlarning yangi bosqichini shartnomaviy-huquqiy jihatdan mustahkamlashni nazarda tutadi.

Shuningdek, Shartnomada tomonlarning bir-birlariga qarshi qaratilgan hech qanday bloklar yoki ittifoqlarga qatnashmaslik hamda tomonlardan birining fikri bo'yicha ikki davlatning strategik sherikligi va ittifoqchilik munosabatlarga zarar yetkazadigan har qanday harakatlarda ishtirok etishdan saqlanish kabi majburiyatlari belgilangan.

Qonun bilan mazkur Shartnomaning ratifikatsiya qilinishi ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro ishonch, do'stona

aloqalar va strategik sheriklikni yanada mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, Shartnoma siyosiy hamkorlikni kengaytirish, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish, yangi loyihalarni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Bundan tashqari, Shartnoma ikki mamlakatning hududlari o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni kuchaytirish, logistika, energetika, sanoat, ta'lim va turizm kabi sohalarda qo'shma loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Muhokama yakunida qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Yalpi majlisda qishloq xo'jaligini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot institutlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda sohaga ilm-fan yutuqlarini joriy qilish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga parlament so'rovi yuborish masalasi ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, keyingi yillarda mamlakatda qishloq xo'jaligini rivojlantirishda tadbirkorlik subyektlariga ilmiy asoslangan axborot taqdim etish, zamonaviy xizmatlar ko'rsatish, ishlab chiqarishga ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalarni keng joriy etish, ularning uzviy integratsiyasini ta'minlash borasida qator yutuqlarga erishilgan.

Bugungi kunda ilm-fan, ishlab chiqarish va zamonaviy agroxizmatlar ko'rsatish uzviyligini ta'minlash maqsadida 1 ta direksiya, 13 ta ilmiy-tadqiqot instituti hamda 49 ta tajriba stansiyasini qamrab olgan Qishloq xo'jaligi vazirligi huzurida Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi faoliyat olib bormoqda.

Ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan don va dukkakli ekinlarning 6 ta yangi navi yaratilgan hamda Davlat reestriga kiritilgan. 517 gektar maydonda kuzgi yumshoq bug'doyning 17 ta yangi istiqbolli navi yetishtirilib, 3 ming tonna yuqori avlodli urug'lik tayyorlangan.

2024-yilda ilk bor tajriba-sinov tariqasida yuqori hosildor, kasallik va zararkunandalarga chidamli g'o'za

navlari hamda duragaylar Xitoy, Turkiya, Hindiston, Isroil, Tojikiston va Qirg'izistondan olib kelinib, respublikamiz bo'yicha jami 96 ming gektar maydonga ekilgan.

Milliy markaz tizimida Vengriya seleksiyasiga mansub 450 ming dona kartoshka urug'larini "in vitro" sharoitida ko'paytirish yo'liga qo'yilgan. Hududlarda aholi daromadini ko'paytirish bo'yicha ilk bor xonadonbay usulida bajariladigan ilmiy loyihalar mexanizmi joriy etilgan.

Sohada olib borilayotgan islohotlar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash hamda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shmoqda.

Respublika bo'yicha sug'oriladigan 821 ming gektar yerda tuproq sifatini baholash, 620 ming gektarda so'flanish darajasini aniqlash ishlari olib borilgan, 807 ming gektarda agroklimoviy tahlil o'tkazilib, ularning kartogrammalari tuzilgan.

Shu bilan birga, yalpi majlisda mahalliy seleksiyaga mansub yangi nav va duragaylarni yetishtirish hamda ilmiy-tadqiqot institutlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sohaga ilm-fan yutuqlarini joriy qilish ishlari yetarli darajada yo'liga qo'yilmaganligi qayd etildi.

Sabzavot ekinlari urug'larining tur va navlari bo'yicha marketing xizmati tashkil etilmagan. Sertifikatlangan urug'larni yetkazib berish uchun iste'molchilar tomonidan urug'lar turi va navlariga buyurtmalar berish mexanizmi to'laqonli shakllantirilmagan.

Shuningdek, eksportbop, import o'rni bosadigan navlar, urug'lar, ishlanmalar va ilmiy natijalarni tijoratlashtirish hamda qishloq xo'jaligida ilm va innovatsiyalarni keng joriy qilishda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish bo'yicha ilmiy loyihalar chora-tadbirlar natijadorligi talab darajasida emasligi ta'kidlandi.

Muhokama yakunida ushbu masalalarga oydinlik kiritish maqsadida Senatning Vazirlar Mahkamasiga parlament so'rovini yuborish to'g'risidagi qarori qabul qilindi.

Oliy Majlis Senatining oltinchi yalpi majlisida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tarkibiga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi masala ham ko'rib chiqildi.

Oliy Majlis Senatining tegishli qaroriga asosan Shamsiddin Mamarejabovich Tojiyev boshqa ishga o'tganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi lavozimidan ozod etildi.

Shuningdek, senatorlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qarorlari ham tasdiqlandi.

Yalpi majlisda jamiyat hayotining barcha sohalari huquqiy asoslarini mustahkamlashga va mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar samaradorligini oshirishga, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan 13 ta masala ko'rib chiqildi, shu jumladan, 10 ta qonun ma'qullandi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining oltinchi yalpi majlisi yakunlandi.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Axborot xizmati.**

## MASALALAR ISLOHOTLAR SUR'ATI NUQTAI NAZARIDAN KO'RIB CHIQUILDI

*Kecha o'tkazilgan Oliy Majlis Senati oltinchi yalpi majlisining ikkinchi kunida ham bir qator qonunlar hamda boshqa masalalar muhokama qilindi. Ularning har biri shiddatli islohotlar nuqtayi nazaridan ko'rib chiqildi. Ushbu masalalardan ayrimlarining mazmun-mohiyati va ahamiyati xususida senatorlar o'z fikrlarini bildirdi.*

### Munosabat

#### Millat kelajigiga daxldor hujjat

**Bahrom ABDULLAYEV,**  
Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi raisi:

So'nggi yillarda aholi, ayniqsa, bolalar va yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, shu jumladan, tamaki mahsulotlarining tarqatilishini va iste'mol qilinishini cheklash bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Bunday sa'y-harakatlarga qaramay tamaki va nikotin mahsulotlarining yangi turlarini, xususan, nikotin yetkazib berishning elektron tizimlarini, elektron sigaretalar va ularning suyuqliklarini mamlakatimizga qonunga xilof ravishda olib kirish hamda muomalaga kiritish hollari ko'paygan bo'lib, bu ularning aholi orasida iste'moli ortishiga olib kelmoqda.

Statistik raqamlarga qaraydigan bo'lsa, oxirgi to'rt yilda mamlakatimizga qiymati 28,5 mln. dollarlik 5,4 mln. dona elektron sigareta xorijdan import qilingan bo'lib, bu ko'rsatkich avvalgi yillardagiga nisbatan keskin ravishda, ya'ni 80 baravar oshgan.

Keyingi yillarda elektron sigaretalardan foydalanuvchi yoshlar ko'payib, eng achinarlisi, maktab o'quvchilari orasida ushbu mahsulotlarga qiziqish tez sur'atlarda ortmoqda. Bugun 30 mingga yaqin o'g'il bolalar, 9 mingga yaqin qizlar chekishga moyil bo'lsa, 12 ming nafardan ortiq o'smirlar ushbu sigaretalarni muntazam chekishini o'tkazilgan tahlillar ko'rsatmoqda.

Tadqiqotlarga ko'ra elektron sigareta tarkibida

nikotin moddasidan tashqari kanserogen, zaharli 80 xil kimyoviy birikma va og'ir metallar mavjud bo'lib, ularning inson sog'lig'i va atrof-muhitga jiddiy ziyoni isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

Inson organizmida nikotinga qaramlikning oshishi bolalar va o'smirlarda miya shakllanishiga, intellekt, bilim va qobiliyatning pasayishiga, ruhiy zavajvorlikning rivojlanishiga, bronx-o'pka tizimida jaburlanish, o'limga olib keluvchi yallig'lanish, saraton va "bodroqsimon o'pka" kasalligini keltirib chiqarishiga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, oshqozon-ichak saratonni, markaziy asab tizimi, buyrak va jigar funksiyasining buzilishi, gipertoniya, insult, infarkt kabi yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanishiga ham yaxshigina zamin yaratadi.

Demak, nikotinni iste'mol qilish moslamalari, shu jumladan, elektron sigaretalar va ular uchun suyuqliklar muomalasini O'zbekiston Respublikasi hududida taqiqlash va bunday huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni belgilash zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Shu ma'noda, "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga ba'zi turdagi tamaki mahsulotlarining, tamakini va nikotinni iste'mol qilish moslamalarining muomalasiga doir talablarni yanada kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi qonun mamlakatimizda kelajak avlodni, millat genofondini, atrof-muhitni tamaki va nikotin tahdididan himoyalash maqsadida ishlab chiqilgan.

Ushbu qonun bilan mamlakatimizda nikotin iste'moli moslamalari, jumladan, elektron sigaretalar va ular uchun suyuqliklarning muomalasi taqiqlanmoqda hamda "Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda

iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida"gi Qonunning 37-moddasi bilan aylanmasi taqiqlangan cheklamaydigan tamaki mahsulotlari, nikotin iste'moli moslamalari, jumladan, elektron sigaretalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun hamda tamakini qizdirish tizimlarining noqonuniy muomalasi uchun ma'muriy va jinoy javobgarlik belgilanmoqda.

Ushbu qonun bolalar va o'smirlar o'rtasida tamaki va nikotin mahsulotlari iste'mol qilinishi kamayishiga, aholi orasida asosiy yuqumli bo'lmagan (yurak-qon tomir, nafas olish a'zolari va saraton) kasalliklaridan barvaqt o'limga olib olinishiga hamda yosh avlod sog'lig'ini saqlashga, millat genofondini sog'lomlashtirishga, atrof-muhit muhofazasiga xizmat qiladi.

#### Yerni asrasak, u bizdan ne'matlarini ayamaydi

**Sayyora ABDIKARIMOVA,**  
Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi o'rinbosari:

– Yer, suv va boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylik, xalqimiz hayoti hamda farovonligining asosi bo'lib, ularning maqsadli va samarali foydalanish, muhofaza qilish, davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Yer resurslaridan to'g'ri va oqilona foydalanmaslik, ularni taqsimlash va qayta taqsimlashdagi kamchiliklar hamda samarasiz foydalanish natijasida ular unumdorligining pasayib ketishi oqilona boshqarish tizimini talab qilmoqda.

Shu bilan birga, bo'sh turgan yerlarni hisobga olish, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni yer fondining boshqa toifasiga o'tkazish mexanizmlarini takomillashtirish, yer uchastkalarini olganlik uchun haq to'lashni amalga oshirish yuzasidan mas'uliyatni kuchaytirish zaruriyati ham yuzaga kelmoqda.

Ma'lumotlarga qaraganda, so'nggi 20 yil davomida mamlakatimizda qishloq xo'jaligi yerlari 64 foizga, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan yerlar esa 24 foizga kamaygan. Shuningdek, ball boniteti 60 dan yuqori bo'lgan yerlar 10 foizga qisqarib, sifati o'rtacha va o'rtaqadadan past bo'lgan yerlar hajmi 14 foizga oshgan.

Sug'oriladigan yerlarning yer fondining boshqa toifasiga o'tkazilishi natijasida 2021 – 2024-yillarda qishloq xo'jaligi yerlari 70 ming gektarga, shu jumladan, sug'oriladigan yerlar 9,6 ming gektarga kamaygan.

Keyingi yillarda olib borilgan gidrogeologik tadqiqotlar natijasida aholini yer osti suvlari hisobiga ichimlik suvi bilan ta'minlash 67 foizga yetgan, lekin muntazam ravishda ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojning ortayotganligi hamda yer osti suvlarining, asosan, yerlarni sug'orish va boshqa maqsadlarda olinishi holatlari keskin oshib ketganligi kuzatilgan.

Tahlillarga ko'ra ayrim hududlarda yer ostidan olinadigan suvning 60 – 90 foizi yerlarni sug'orishga yo'naltirilmoqda. 21 ta tumanda esa suv sathi ko'p yillik o'rtaqada sathdan 5 metrgacha va undan ortiq pasayib ketgan.

Sohaga oid ruxsat beruvchi tartib-tamoyillar sodda va shaffof bo'lishiga qaramasdan yer osti suvlariga quduqlarni ruxsatsiz burg'lash, suvdan nazoratsiz va hisobsiz foydalanish holatlari yildan-yilga ortib boryapti. Xususan, 2019 – 2024-yillarda yer osti suvlari uchun 1500 ga yaqin ruxsatnomasiz (noqonuniy) burg'lash va foydalanish holatlari aniqlangan bo'lib, shundan 186 tasida noqonuniy quduq burg'lash holatlari bo'yicha ma'muriy javobgarlik choralari ko'rilgan.

Yuqorida keltirilgan raqamlar yerlardan samarali foydalanishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishni taqozo qilmoqda. Shu bois "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish

to'g'risida"gi qonun bilan bir qator qonunlar hamda kodekslarga yuqorida keltirib o'tilgan masalalarni qamrab olgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilayapti.

Jumladan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga yer osti suvlariga quduqni qonunga xilof ravishda burg'lanilgan uchun javobgarlikni belgilovchi, yer osti suvlaridan nazoratsiz va hisobsiz foydalanilgan uchun javobgarlikni kuchaytiruvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Soliq kodeksida yer osti suvlaridan foydalanuvchilar tomonidan suvni hisobga olish vositalarisiz suv olinganida soliq to'lovini belgilangan soliq stavkasining besh baravari miqdorida undirish nazarda tutilyapti.

Bundan tashqari, Yer kodeksiga sug'oriladigan yerlarni boshqa toifaga o'tkazish bo'yicha talablarni kuchaytirishni, toifasi o'zgartirilgan yerlardan keluvchiga foydalanish bo'yicha aniq shartlarni belgilovchi, yer uchastkasini olganlik va yerdan foydalanilgan uchun haq bo'yicha qarzdorlik 6 oy ichida bartaraf etilmasa, yerga bo'lgan huquqni bekor qilishni nazarda tutuvchi qo'shimcha va o'zgartirishlar ham nazarda tutilmoqda.

Buning natijasida sug'oriladigan yerlarni yer fondining boshqa toifasiga o'tkazish holatlari kamayib, uni muhofaza qilish mexanizmi kuchaytiriladi hamda qishloq xo'jaligiga yetkazilgan nobudgarchiliklar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishning aniq manba va muddatlari belgilanadi.

Qolaversa, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi obyektlarni joylashtirish hisobiga ishlab chiqarish samaradorligi oshadi. Suv taqisligi tahdid solayotgan bir paytda yer osti suvlaridan ruxsatsiz foydalanish holatlari kamayadi.

Shu bois mazkur qonunni ona zaminimizni asrab-avaylash yo'lidagi navbatdagi qadamlardan biri deyish mumkin.

"Xalq so'zi".

Qo'mitalar hafta ichida



MAQSADLI INDIKATORLARGA AJRATILGAN MABLAG'LAR NATIJADORLIGI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Mehnat, sog'liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo'mitasining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Sog'liqni saqlash vazirligining "2024-yil uchun byudjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlarning ijrosi to'g'risida"gi axboroti eshildi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, byudjet mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan parlament hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbarining tegishli qarori bilan tasdiqlangan birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning 2024-yil uchun byudjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlari bo'yicha Sog'liqni saqlash vazirligining 23 ta banddan iborat maqsadli indikatoriga 1 501,1 mlrd. so'm mablag' ajratilgan.

Axborotda keltirib o'tilganidek, 2024-yilda bolalarni vaksinalar bilan ta'minlash dasturi bo'yicha ajratilgan mablag'larning 97,6 foizi o'zlashtirilib, bolalarni emlash orqali aholining epidemiologik barqarorligi ta'minlangan.

Shuningdek, hisobot davrida onkologiya yordamini takomillashtirish va onkologiya xizmatini yanada rivojlantirish dasturi doirasida 164,3 mlrd. so'm o'zlashtirilgan. Natijada 12 mingdan ziyod bemorlarda onkologik kasalliklarni I va II bosqichlarda erta aniqlashga erishilgan.

Yig'ilishda deputatlar maqsadli indikatorlar ijrosi bo'yicha nefrologiya va gemodializ yordami, endokrinologik kasalliklarning oldini olish, ftiziatriya va pulmonologiya xizmati uchun Davlat byudjetidan ajratilgan mablag'larning natijadorligini soha mutaxassislari bilan atroficha muhokama qilishdi.

Muhokama davomida deputatlar erishilgan yutuqlar bilan birga, har yili Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar ayrim hollarda 7-8 oylab harakatsiz qolayotgani (o'zlashtirilmagan) natijasida tibbiyot muassasalariga dori-darmon, tibbiy buyumlar va tibbiyot texnikalari belgilangan muddatdan kech yetkazilishiga sabab bo'layotganini tanqid qilishdi.

Tadbirida deputatlar Sog'liqni saqlash vazirligida byudjet intizomini kuchaytirish, byudjet mablag'larini samaradorligini oshirish bo'yicha bir qator takliflar berishdi. Shuningdek, belgilangan vazifalar ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini o'rnatishga kelishib olindi.

FAXRIY HARBIYLAR — E'ZOZDA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi tomonidan 9-may — Xotira va Qadrlash kuni munosabati bilan "Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi" shiori ostida faxriy harbiylar ishtirokida davra suhbatlari o'tkazildi.

Unda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gardiya faxriylari va harbiy xizmatchilar ishtirok etdi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz mudofaa salohiyatini mustahkamlash, Qurolli Kuchlarni professional tuzilmaga aylantirish, harbiy xizmat nufuzini oshirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Ayni chog'da yoshi ulug' insonlarga, ayniqsa, mamlakatimiz barqarorligi va tinchligi yo'lidagi xizmat qilgan harbiylarga, ularning oilalariga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Tadbirida aytilganidek, Xotira va Qadrlash kuni — xalqimizning asrlar davomida shakllangan ezgu qadriyatlarini, milliy o'zligimiz, tinchlik va ozodlik uchun kurashgan ajdodlarimizning jasoratini yodga olish, ularning xotirasini abadiylashtirish, qahramonliklarini yosh avlod ongiga singdirish imkonini beradi.

Tadbir davomida

mudofaa va xavfsizlik sohasidagi islohotlar, sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish, parlament nazoratini olib borish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar, kelgusidagi vazifalar bo'yicha fikrlar, takliflar bildirildi. Harbiy xizmatchilar hamda faxriylarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida bajarilayotgan ishlar to'g'risida ham ma'lumotlar taqdim etildi.

O'z navbatida, ishtirokchilar ushbu tadbir mamlakatimizda harbiy soha faxriylariga ko'rsatilayotgan yuksak ehtirom ifodasi bo'lib, ularning boy tajribasini o'rganish va yosh avlodga yetkazish, shuningdek, mudofaa, xavfsizlik sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda faxriylarning fikr-mulohazalarini inobatga olish maqsadida tashkil qilingani bilan ham ahamiyatli ekanini ta'kidladilar. Faxriylarning hayotiy tajribasi va bilimidan qonun ijodkorligi jarayonida foydalanish quyi palata faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi alohida qayd etib o'tildi.

Tadbir doirasida harbiy faxriylar Qonunchilik palatasi muzeyi, katta majlislar zali, kutubxona va axborot resurs markazi bilan tanishdi.

Tadbir davomida

"Xalq so'zi".

INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING ENG OLIY MEZONI

Ijtimoiy xizmat va yordamni mahalla darajasida tashkil etishga alohida e'tibor qaratildi. O'tgan davrda kam ta'minlangan oilalar manzilli o'rganilgani hamda tizim shaffof qilinishi natijasida doimiy daromadga ega oilalar bunday toifadan chiqarildi. Shu bilan birga, o'zgalar parvarishga muhtoj, yolg'iz yashayotgan 2 ming kishiga yordam ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Umuman, ijtimoiy himoya tizimi bilan 250 ta xizmat qamrab olindi.

2024-yildagi davlat dasturi ijrosi doirasida "yoshlar daftari"ga jami 133 ming 718 yigit-qiz kiritilib, ularning 75 ming 599 nafariga talab yuqori bo'lgan yo'nalishlardagi xarajatlar uchun 146,3 mlrd. so'm qoplab berildi.

30 yoshdan oshgan 7,5 mln. xotin-qiz xatlovdan o'tkazilib, ulardan 1 mln. 180 nafari "ayollar daftari"ga kiritildi. Og'ir ijtimoiy ahvolda tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish, ularni manzilli qo'llab-quvvatlash tizimi yaratildi.

Qayd etish kerak, kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar ijtimoiy davlat g'oyasining asosiy yo'nalishlaridan biri sanaladi. O'tgan qisqa davrda "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi qabul qilinib, birgina 2024-yilda ushbu sohaga 22 trln. so'm mablag' yo'naltirildi. Bu borada qator ishlar amalga oshirildi.

Xususan, "Har bir oila — tadbirkor" dasturi doirasida minglab oilalarga imtiyozli kreditlar ajratilib, ular o'z tadbirkorligini boshlash imkoniga ega bo'ldi.

Oliy ta'lim qamrovi 9 foizdan

Ijtimoiy shartnomalar tizimi asosida kambag'allikda yashovchi oilalarga vaqtinchalik yordam berish emas, balki ularni uzoq muddatli mustaqil hayotga tayyorlashga qaratilgan dasturlar ro'yobga chiqarildi. Kambag'allikni aniqlash va monitoring qilish uchun Raqamli kambag'allik xaritasi ishlab chiqilib, real vaqt rejimida ma'lumot to'plash va tahlil qilish imkoniyati yaratildi.

Bilamizki, ta'lim — teng imkoniyat va kelajak kafolati hisoblanadi. Shu bois ta'limni yangi bosqichga olib chiqish, qamrovni oshirish hamda qulay shart-sharoit yaratish yo'nalishida 2024-yilda 2684 ta yangi maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati yo'lga qo'yildi. Ularga 77 ming 124 nafar bola qabul qilinishi natijasida farzandlarimizni maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi 74,6 foizga yetkazildi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari soni oshirilib, xususiy sektorga keng yo'l ochildi. 2024-yilda maktablarda "inklyuziv ta'lim" dasturi doirasida nogironligi bor bolalar uchun moslashtirilgan sinflar tashkil etildi. Kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun maktab va oliy ta'limda grantlar, moddiy yordamlar kengaytirildi.

2023/2024 o'quv yilining birinchi yarim yiliga 530 ta umumiy o'rta ta'lim muassasasida inklyuziv ta'lim tizimi joriy etildi. Bu maktablarda alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud 1 ming 195 nafar bola ta'lim o'lmoqda. Ularning 37,6 foizini qizlar tashkil etadi.

Oliy ta'lim qamrovi 9 foizdan

42 foizgacha ko'tarildi, bu "ijtimoiy lift"lar ishga tushganidan dalolat. Oliy ma'lumotga ega bo'lmagan xotin-qizlar uchun 2 mingta qo'shimcha davlat granti ajratildi. Shuningdek, ularning shartnoma to'lovlarini uchun 7 yilga foizsiz kredit berish va magistraturada o'qiyotgan xotin-qizlarning shartnoma to'lovlarini davlat tomonidan qoplash tartibi joriy etildi. Qizlarning oliy ta'limi davlat tomonidan moliyaviy rag'batlantirilib, birgina 2024-yilda magistraturada tahsil olayotgan 15 mingdan ziyod talaba qizlarga 190 mlrd. so'm shartnoma to'lovlarini to'lab berildi.

Yana bir jihat. So'nggi yillarda tibbiyot sohasida ham muayyan ishlar olib borilayotganini e'tirof etish joiz. Jumladan, ushbu tizimga Davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar hajmi 30 trln. so'mdan oshdi. Davlat tibbiy sug'urtasi joriy qilinib, fuqarolarning tibbiy xizmatlardan teng va o'z vaqtida bahramand bo'lishi ta'minlanmoqda. Aholiga qulaylik yaratish maqsadida yangi muassasalar barpo etilmoqda. Birgina 2023-2024-yillarda 30 ta oilaviy poliklinika, 110 ta oilaviy shifokor punkti va 500 ta mahalla tibbiyot punkti ochildi. Bu orqali 2,1 milliondan ziyod aholi qatlamiga birlamchi tibbiy xizmat yaqinlashtirildi. 106 ta oilaviy shifokor punkti va poliklinika, mingta mahalla tibbiyot punkti tashkil etildi. Natijada 3,5 mln. aholiga birlamchi tibbiy xizmat yaqinlashtirildi.

2023-2024-yillarda hududlarda aholiga tezkor tibbiy yordam ko'rsatish konsepsiyasi joriy qilindi. Bolalar va ayollar salomatligini

muhofazalash maqsadida maxsus milliy dasturlar amalga oshirildi. Elektron tibbiyot kartalari va raqamlashtirish orqali xizmatlar shaffoflashtirildi.

Onalik va bolalikni muhofaza qilish yo'nalishida 230 ta tug'uruq muassasasi hamda 245 ta pediatriya shoxobchasi aholiga xizmat qilib kelmoqda.

2024-yilda joylardagi birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida 8,4 mln. nafar ayol tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.

Albatta, bularning barchasi xotin-qizlar, bolalar salomatligini mustahkamlash yo'nalishidagi ishlar samaradorligi va natijadorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Shu o'rinda aholi bandligini ta'minlash borasida ko'rilayotgan choralariga to'xtaladigan bo'lsak, ijtimoiy ish o'rnlari dasturi orqali ehtiyojmand qatlam va yoshlar ish bilan ta'minlanayotgani, ularga imtiyozlar berilayotganini alohida qayd etish joiz. Binobarin, 2023-yil 1-yanvardan boshlab, o'zining shaxsiy tomoniga yozilgan muayyan faoliyat turlari bilan shug'ullanayotgan fuqarolar, agar yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari darajasida ijtimoiy soliq to'lasalar, rasmiy band aholi toifasiga kiritiladi va bu davr ularning

Shubhasiz, mamlakatimiz yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mustahkamlangan ijtimoiy davlat g'oyasini amalga oshirish yo'lida dadil odimlamoqda. Shu dolzarb omilni hisobga olgan holda "Yangi O'zbekiston — ijtimoiy davlat" tamoyili hayotimizning barcha sohasida o'z aksini topishiga alohida e'tibor qaratilayotir.

Shuhrat YOQUBOV,  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

MUAMMOLAR YECHIMIGA YO'NALTIRILGAN GRANTLAR

Majlis davomida hududlar kesimida aniqlangan ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni bartaraf etishga qaratilgan davlat grantlari e'lon qilinishi to'g'risida qaror qabul qilindi. Ushbu grantlar aholi bandligini ta'minlash, ijtimoiy himoya va sog'liqni saqlash, atrof-muhit hamda sanitar-gigiyenik holatni yaxshilash, ta'lim, madaniyat va sportni rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qabul qilib, kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.

Shuningdek, majlisda qator davlat tashkilotlarining ijtimoiy buyurtmalari, nodavlat notijorat tashkilotlarining ustav faoliyati bo'yicha murojaatlari va amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalarni yuzasidan takliflar ham ko'rib chiqildi va tegishli qarorlar qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

SAYLOV DEMOKRATIK TAMOYILLAR ASOSIDA O'TKAZILADI

Poytaxtimizdagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida shu yilning may — iyul oylarida o'tkaziladigan Fuqarolar yig'ini raisi saylovlari tashkil etish va o'tkazish masalalariga bag'ishlangan brifing uyushtirildi.

Brifing

Tadbirida O'zbekiston mahallalari uyushmasi axborot xizmati rahbari Jobir Asqarov ushbu mas'uliyatli jarayon haqida batafsil ma'lumot berdi.

Ta'kidlanganidek, yurtimiz bo'yab muhim siyosiy tadbir — mahalla raislari saylovlari 1-may sanasidan boshlanadi. Shu munosabat bilan yil boshidanoq mamlakatimizdagi mavjud 9 ming 452 ta mahallada saylovlarni yuqori saviyada tashkil etish bo'yicha qizg'in tayyorgarlik

ko'rilgan. Ushbu siyosiy tadbirni yangicha demokratik tamoyillar asosida, ochiqlik va oshkorlikda, fuqarolarning xohish hamda irodasini erkin ifoda qilish prinsiplariga xos tarzda o'tkazish yuzasidan barcha kuch va imkoniyatlar safarbar etilmoqda.

Aytish joizki, joriy yilda O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar yig'ini raisi saylovi to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Barcha ko'ra endilikda mahalla fuqarolar yig'ini raislarining vakolat muddati 5 yilga uzaytirildi.

Mahallalar uyushmasida respublika

shtabi, 14 ta hududda hamda 208 ta tuman va shaharda mahalla raislari saylovlari tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi komissiyalar qoshida shtablar faoliyati yo'lga qo'yildi. Ko'maklashuvchi komissiyalarning mahalla raislari saylovlarga doir 32 turdagi hujjatlar loyihasi tayyorlanib, hududlarga yetkazildi.

Saylovlarni tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini ommaviy axborot vositalarida yoritish bo'yicha mediareja ishlab chiqildi. Saylov o'tkaziladigan kun, vaqt va joy haqidagi ma'lumotlar O'zbekiston mahallalari uyushmasining rasmiy veb-saytida joylashtirib borilmoqda.

Saylovlar o'tkaziladigan joylarga nomzodlar va saylovlarga oid ma'lumotlar stendlari joylashtirildi. 14 ta hududda Kengashlarning

sessiyalari o'tkazilib, mahalla raislari saylovlari tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar komissiyalari (jami 338 nafar a'zodan iborat) va chora-tadbirlar rejasini, shuningdek, 208 ta tuman (shahar) Kengashlari sessiyalari qarori bilan fuqarolar yig'inlari raislari saylovlari tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tumanlar va shaharlar komissiyalari tasdiqlandi.

May — iyul oylarida bo'lib o'tadigan saylovlarda ishchi guruhlar tomonidan 208 ta tuman (shahar) ko'maklashuvchi komissiyalarining qarori bilan mahallalarda vakillar miqdori belgilandi. Saylovlarda 2 million 591 823 nafar vakil ishtirok etishi kutilmoqda.

"Xalq so'zi".

XAVFSIZLIK TIZIMLARINI YAGONA MARKAZ ORQALI NAZORAT QILISH IMKONIYATI

Bugungi kunda gidroelektrostansiyalar (GES) hamda suv omborlari va ularning gidrotexnika inshootlarining xavfsiz va barqaror ishlashini ta'minlashda zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish, nazorat-o'lchov qurilmalaridan olinayotgan ma'lumotlarni inson omilisiz avtomatik diagnostika va onlayn monitoring qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Gidroenergetika

Shu bois yurtimizda birinchi marta gidrotexnika inshootlarining xavfsiz ishlashini ta'minlashga qaratilgan axborot tizimlarining yagona majmuasi — Vaziyatlar markazi ishga tushirildi.

"O'zbekgidroenergo" AJ tomonidan hayotga tatbiq etilgan ushbu markaz faoliyatini tashkil qilish, gidrotexnika inshootlarini raqamlashtirish jarayonlarida sohadagi AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Italiya, Slovakiya, Xitoy kabi davlatlarning nufuzli kompaniyalari ijobiy tajribasi o'rganildi.

E'tiborlisi, markaz joylardagi tizimlarning uzluksiz ishlashini ta'minlab, AJ tasarrufidagi jami 6 ta suv ombori hamda 80 tadan ziyod katta va kichik GESlarni real vaqt rejimida mukammal kuzatish hamda tahlil qilish imkoniyatini yaratdi. Shuningdek, suv omborlarining faoliyatini xavfsiz yo'lga qo'yish maqsadida barcha turdagi nazorat-o'lchov qurilmalariga zamonaviy datchiklar o'rnatilib, ma'lumotlarni



onlayn tarzda yuqori aniqlikda uzatish, suv omborlari holatini doimiy monitoring qilish hamda hodisalarni avtomatik qayd etishga erishildi. Bunda Italiyaning nufuzli "SIGEO" kompaniyasining jami 1,5 mingga yaqin ilg'or qurilma va jihozlari (datchiklar) obyektlarga o'rnatildi.

— Yana bir muhim jihat, amalga oshirilgan raqamlashtirish va avtomatlashtirish chora-tadbirlari asosida yurtimizda birinchi marotaba mahalla mutaxassislari jalb etgan hamda suv omborlari uchun "Xavfsizlik mezonlari" ishlab chiqildi, — deydi "Gidrotexnika inshootlari xavfsizligini baholash va monitoringini yuritish" MCHJ direktori Shuhrat Tolipov. — Bunda suv omborini xavfsiz ishlatis bo'yicha ko'rsatkichlar belgilandi. Ayni paytda "O'zbekgidroenergo" AJ boshqaruvidagi suv omborlarida to'liq avtomatlashtirilgan tizim yaratildi.

Bu hali hammasi emas. Germaniya Yer tadqiqotlari markazining "Markaziy Osiyoda suv" loyihasi tomonidan hududda suv zaxiralarni aniqlash, uzluksiz

kosmik kuzatuvlarga asoslangan suv zaxirasini monitoring qilish — "MODSNOW" dasturi joriy etildi. Bu bilan dasturiy ta'minotda sun'iy yo'ldoshdan olingan foto hamda videosuvarlar yordamida matematik hisoblarni amalga oshirish orqali qor zaxirasini katta aniqlik bilan hisoblash imkoniyati yaratildi.

Tizimdagi barcha GES va suv omborlarida markazlashgan IP-telefoniya tizimi foydalanishga topshirildi. Zamon talabidan keib chiqib, korxonalarida intellektual videokuzatuv tizimlari barpo etildi. Barcha tizim korxonalarining mingdan ortiq yangi avlod kameralari bilan jihozlanib, Vaziyatlar markaziga ma'lumotlar to'g'ridan-to'g'ri uzatib borilishi ta'minlandi. Qolaversa, biron-bir axborot tizimida nosozlik, texnik uzilish yuzaga kelsa, uni Vaziyatlar markazi orqali tezkorlik bilan aniqlab, bartaraf etish mumkin.

Rahim SHERQULOV ("Xalq so'zi").  
Davronbek ERNAZAROV olgan surat.

UCHINCHI KURSDA ISH JOYI TAYIN

Davlatimiz rahbari raisligida joriy yilning fevral oyida o'tkazilgan yoshlar bandligini ta'minlash chora-tadbirlariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida yoshlarga sifatli ta'lim berish, kasb-hunarga o'qitish va bandligiga erishish bo'yicha bir qator muhim vazifalar belgilangan edi.

Ertaning umidi

Mazkur vazifalar ijrosi doirasida Toshkent davlat iqtisodiy universitetida "Karyera kuni" mehnat yarmarkasi tashkil etildi.

Unda universitet talabalarini hamda bitiruvchilarni, iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank hamda 300 dan ortiq korxonaga va tashkilotlar, tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari, xususiy sektor idoralari, uyushmalar vakillari qatnashdi. Ta'kidlanganidek, 2023/2024 o'quv yilida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetini tamomlagan bitiruvchilarning deyarli hammasi muhim ish joylariga ega. Joriy o'quv yilida institutni 10 mingga yaqin bitiruvchilar tamomlaydi. Ularning ish o'rnlari taqsimoti to'liq amalga oshirilgan bo'lib, hozirgi kunda 3-kurs talabalarini ish o'rnlari taqsimlash ishlari davom ettirilmoqda.

Tadbirida ish beruvchi korxonaga va tashkilotlar mas'ul xodimlari o'z faoliyatini yorituvchi ko'rgazmali jihozlar va bo'sh ish o'rnlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan qatnashdi. Talabalar bilan ishga qabul qilish bo'yicha tanlovlar o'tkazildi. Ulardan muvaffaqiyatli o'tgan 215 nafar talabaga ishga qabul qilinganlik to'g'risida sertifikatlar taqdim etildi.



Bundan tashqari, tanlovlarning birinchi bosqichida qatnashgan 5 ming nafar talabani ma'lumotnomalari ish beruvchi korxonaga va tashkilotlar vakillari tomonidan o'rganish uchun olinib, natijalari to'g'risida xabar berilishi aytiladi.

Tadbirida talabalar va universitet bitiruvchilari o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldi, xususan, ish beruvchi korxonaga yoki tashkilotdagi mavjud vakant o'rnlarni, u yerdagi mehnat va maishiy-madaniy shart-sharoitlar, ish haqi borasidagi ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Shu bilan birga, mehnat yarmarkasida ishtirok etgan yigit-qizlar ish beruvchilardan qiziqarli takliflar olishdi. Ishonamizki, ushbu tadbir yoshlarning kelajakdagi kasbiy o'sishida navbatdagi omadli qadam bo'lib qoladi.

Islomjon IKROMOV, O'ZMU talabasi.

# MOTURIDIYLIK – BAG'RIKENGLIK, MO'TADILLIK VA MA'RIFAT TA'LIMOTI



Diniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar natijasida yurtimizda moturidiyshunoslik ilmiy maktabi shakllandi. Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot

markazining maqomi va nufuzi oshirilib, Vazirlar Mahkamasida huzurida qayta tashkil etildi. Imom Abu Mansur Moturidiy musulmonlarni to'g'ri yo'lga boshlashda ko'rsatgan jonbozligi

tufayli olimlar orasida "Imom al-huda" (Hidoyat imomi), "Rais ahli sunna val jamoa" (Ahli sunna val jamoa raisi), "Musahhih ahli sunna val jamoa" (Ahli sunna val jamoani to'g'ri yo'lga soluvchi), "Imom al-Mutakallimin" (Mutakallimlar imomi) kabi nomlar bilan tanilgan.

U asos solgan moturidiylik maktabi bugungi kunda sunniylik yo'nalishidagi yirik e'tiqodiy ta'limotlardan biri hisoblanadi. Imom Moturidiy ilgari surgan aqidaviy qarashlar o'sha davrda mintaqada kuzatilgan turli adashgan oqimlar faoliyatiga barham berishda muhim rol o'ynagan.

Imom Moturidiy ta'limoti uning izdoshlari tomonidan rivojlantirilib, aqidaviy mazhab darajasiga ko'tarilgan. Ushbu jarayonda Abu Muin Nasafiy, Abu Hafsa Nasafiy kabi allomalarning o'rni katta bo'lgan.

Bugungi kunda 1,9 milliardlik dunyo musulmonlarining 750

milliondan oshig'i moturidiylik aqidaviy yo'nalishiga mansub sanaladi.

Imom Moturidiy o'zidan aqida, tafsir, fiqh va usul al-fiqh sohalariga bo'yicha boy ma'naviy meros qoldirgan. Uning 20 ga yaqin asarlar yozgani manbalarda keltirilgan. Mazkur kitoblardan bizgacha "Kitob at-tavhid" va "Ta'vilot al-Qur'on" asarlarigina yetib kelgan. Bugungi kunda ushbu ikki manba o'zbek tiliga tarjima qilinib, chop etilgan.

Anjumanida Imom Moturidiyning ilmiy merosi, moturidiylik ta'limotining mohiyati, bugungi kundagi ahamiyati kabi muhim masalalar muhokama qilindi. Uning ahli sunna val jamoa e'tiqodiga asoslangan ta'limoti buzg'unchi g'oyalarga ilmiy asoslangan raddiyalarni berishda o'ta ahamiyatli hisoblanib, musulmonlar o'rtasida birlik va hamjihatlikni ta'minlashda muhim o'rin egallashi ta'kidlandi. Shu nuqtayi nazardan,

allomaning ilmiy merosini o'rganish hamda keng targ'ib qilish maqsadida konferensiya ishi 3 ta shu'bada olib borildi.

Birinchi shu'ba "Imom Moturidiy va uning izdoshlari ilmiy merosining islom ilmlari rivojida o'rni" mavzuiga bag'ishlangan bo'lib, unda Imom Moturidiy, moturidiylik allomalari hayot yo'li, Movarounnahr kalom ilmi maktabining rivojlanish tarixi haqida ilmiy muzokaralar bo'lib o'tdi.

Ikkinchi shu'ba "Moturidiylik ta'limotida umuminsoniy qadriyatlar talqini" mavzuda bo'lib, u moturidiylik ta'limotida ilgari surilgan g'oyalar, jumladan, bag'rikenglik, mo'tadillik, birdamlik va ma'rifat g'oyalarining shakllanishiga oid munozaralarni o'z ichiga oldi.

Uchinchi shu'ba "XXI asrda moturidiylik ta'limotining ahamiyati" mavzuiga bag'ishlangan bo'lib, u Imom Moturidiy ilmiy merosida aks etgan mavzularning bugungi kundagi dolzarb muammolarni hal qilishda muhim platforma vazifasini bajaradi.

Anjuman yakunida Imom Moturidiy ilmiy merosi va moturidiylik ta'limotini o'rganishni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha nufuzli olimlarning taklif va tashabbuslari asosida yakuniy deklaratsiya qabul qilindi. Unda bugungi kundagi dolzarb masalalarga yechim topish, xususan, adashgan oqimlarga ilmiy raddiyalar berishda moturidiylik ta'limotining o'rni va ahamiyati, mo'tadilligi ishtirokchilar tomonidan alohida e'tirof etildi.

Anjuman davomida mamlakatimizdagi ilmiy-ma'rifiy markazlar tomonidan tayyorlangan nashrlar asosida kitoblar ko'rgazmasi tashkil qilindi. Unda Imom Moturidiy qalamiga mansub "Ta'vilot al-Qur'on", "Kitob at-tavhid" asarlarining o'zbek tilidagi ilmiy-izohli akademik tarjimalari xorijlik olim va mutaxassislar tomonidan yuqori baholandi.

Konferensiya doirasida ishtirokchilar ko'hna va hamisha navqiron Samarqand shahridagi muborak qadamjolarini ziyorat qilish imkoniga ega bo'ldi. Ular Imom Moturidiy yodgorlik majmuasi, Registon maydoni, Shohi Zinda maqbaralar majmuasi kabi diqqatga sazovor joylar bilan yaqindan tanishib, atroflicha ma'lumot oldilar.

Abdulaziz YO'LDOSHEV ("Xalq so'zi").

## So'z – anjuman ishtirokchilariga

**Shayx Usoma AZHARIY,**  
Misr Arab Respublikasi vaqf ishlari vaziri:

– Samarqand, Buxoro kabi shaharlar qadimdan dunyo sivilizatsiyalari markazi bo'lib kelgan. Bunga shu zamindan yetishib chiqqan ko'plab buyuk allomalarning ilmiy merosini misol qilib keltirish mumkin.

Birgina Imom Moturidiyning o'zi aqida, tafsir, fiqh va usul al-fiqh sohalariga bo'yicha juda boy ma'naviy meros qoldirgan. Uning 20 ga yaqin asarlar yozgani manbalarda keltirilgan.

Bugun Imom Moturidiyning yurti – Samarqandda turib ana shu buyuk allomaning asarlari, ta'limotini tadqiq va targ'ib qilish borasidagi ishlar haqida fikr-mushohada yuritish baxtiga muyassar bo'ldik. Moturidiylik ta'limotining tarixi va buguni haqida ma'ruzalar tinglandi.

Ming yillar o'tgan bo'lsa ham, tarixning o'zi moturidiylik yo'li naqadar to'g'ri ekanini isbotlab turibdi. Chunki u hamon "to'g'ri yo'lining dalili bo'lgan ilmi o'rgan", deya barcha xalqlarni to'g'rilik va taraqqiyot sari boshlab kelmoqda.

Prezidentingiz boshchiligidagi mamlakatda diniy va dunyoviy ta'limni rivojlantirish, allomalar merosini asrab-avaylash va o'rganish, uni kelajak avlod ongiga singdirish yo'lidagi sa'y-harakatlarni yuqori baholaymiz.

**So'nmas KUTLU,**  
Anqara universiteti professori,  
moturidiyshunos olim (Turkiya):

– Bu zaminning nechog'li buyukligi tarixdan barchaga ma'lum. Madrasalari mahobatli masjidlari bilan butun olamga nom taratgan O'zbekiston – ilm va madaniyat "ka'ba"sidir. Chunki bu ulug' yurtidan buyuk allomalar yetishib chiqqan. Ular dunyo ilm-fani, islom tamadduni rivojiga ulkan hissa qo'shganki, buni dunyo e'tirof etadi. Shunday zotlardan biri – Imom Moturidiydir. Alloma islom dunyosining eng ulug' zotlaridan. U bizga islomni to'g'ri anglashimiz uchun bebaho asarlar qoldirdiki, bugun ham ular o'z qimmatini yo'qotmagan va hamon asosiy o'quv qo'llanmalar hisoblanadi. Xususan, Abu Mansur Moturidiyning "Ta'vilot al-Qur'on" asarini alohida qayd etib o'tish lozim. Ushbu asar Qur'onning boshdan oxirigacha to'liq tafsiri hisoblanib, hozirgacha bu darajada batafsil, to'liq sharhlangan undan boshqa asar yozilmagan.

**Mohd Yusuf USMON,**  
Malayziya Islomni  
anglash instituti direktori  
o'rinbosari, professor:

– Moturidiylik ta'limotiga bag'ishlangan ilmiy konferensiya sabab ko'hna va hamisha navqiron Samarqandni ziyorat qilish baxtiga muyassar bo'ldik. Imom Moturidiy maqbarasi, Shohi Zinda majmuasi, Registon maydoni va boshqa qadamjolarida shuni angladimki, Samarqandga sayohat kishida uchta

taassurotni uyg'otadi. Birinchisi – bu jismoniy taassurot, ya'ni ko'zi bilan ko'rgan tarixiy obidalar mahobatini his qiladi. Ulardan zavq oladi.

Ikkinchisi – ma'naviy taassurot. Bunda azaldan o'zbek xalqining ma'naviy dunyosi boy bo'lgani, ilm-ma'rifat nechog'li ulug'langanini anglaydi. Betakror san'at namunalaridan bahra olib, ma'naviy dunyosi boyiydi.

Uchinchisi – ilmiy taassurot. Buni anglash biroz mushkul

Moturidiyning ta'limotini o'rganish islom olami uchun juda zarur, deb hisoblayman. Chunki dunyoni anglash, unda tinchlik va osoyishtalikni saqlashning yagona yo'li ilm-ma'rifat ekani u zotning asarlari mazmun-mohiyatini tashkil qiladi.

Islom dunyosida shunday ibora bor: Qur'on Makkada nozil bo'ldi, Qohirada o'qildi, Istanbulda yozildi, Samarqandda uning mohiyati anglab yetildi. Buni Moturidiy amalga oshirdi. Ya'ni islom dinining asl mohiyati nimaligini ulug' allomamiz o'z asarlari orqali ommaga tushuntirib, asl mohiyatini anglab yetishimizga zamin yaratdi. Shu bois bugun butun dunyo islomshunoslari allomaning shaxsiyatini, ta'limotini o'rganib, tadqiqotlar davomida to'plangan yangiliklarni keng targ'ib etish bilan moturidiylikning ommalashishiga hissa qo'shishni maqsad qilganmiz. Bu yo'lda bizni ko'lab-quvvatlayotgan, sharoit yaratayotgan O'zbekiston hukumatiga, Prezidentiga o'z minnatdorligimizni bildiramiz.

bo'lsa-da, lekin tarixning o'chmas ildiziga aylangan muqaddas qadamjolariga muhrlangan bebaho ma'lumotlar moziyini ko'z oldingizda gavdalantiradi.

Shunday ekan, nima uchun bu manzilu makon sayohlik markaziga qadamjolarini kerak?! O'ylaymanki, Samarqandning turistik salohiyati yil sayin ortib, bundan-da rivojlanadi.

Shaharning diqqatga sazovor joylarini ko'rib, butun dunyo ahli bu yerga talpinayotganiga guvoh bo'ldik.

## "O'ZSANOATQURILISHBANK" KO'MAGIDA SAMARQAND METALLURGIYA ZAVODIDA YANGI QUVVAT ISHGA TUSHIRILDI



Samarqanddagi "AZIA METALL PROF" korxonasi tomonidan ishga tushirilgan navbatdagi muhim loyiha – metallni sovuq prokatalash usulida qayta ishlash liniyasi ana shular sirasiga kiradi. Loyihaning umumiy qiymati 219,6 mln. AQSH dollari hajmida bo'lib, shundan 90 mln. dollari xorijiy investitsiya, 50 mln. dollari esa "O'zsanoatqurilishbank" tomonidan

29-aprel kuni "O'zsanoatqurilishbank" ATBning moliyaviy ko'magi bilan Samarqand metallurgiya zavodi – "AZIA METALL PROF" mas'uliyati cheklangan jamiyatida rux va polimer qoplamali metall mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. So'nggi yillarda Prezidentimiz rahnamoligidagi metallurgiya sohasini transformatsiya qilish va raqamlashtirish yo'nalishida keng ko'lami ishlar amalga oshirilayotir, zamonaviy va yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarish quvvatlari barpo etilmoqda.

### Moliya muassasalarida

Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan jalb qilindi. Ayni paytda uning ishlab chiqarish quvvati 500 ming tonnaga teng bo'lib, bu ko'rsatkich 2026-yilga borib 600 ming tonnagacha oshirilishi rejalashtirilgan. Qo'shimcha 400 ta ish o'rni yaratilgan, mahsulotlar ichki va tashqi bozorlarga yetkazib beriladi. Ochilish marosimida yangi majmua iqtisodiy

o'sish, bandlik darajasini oshirish va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish kabi yo'nalishlarda mamlakat taraqqiyotiga katta hissa qo'shishi ta'kidlandi. Loyiha nafaqat mintaqada, balki butun mamlakat sanoat salohiyatini ko'tarishga xizmat qilishi qayd etildi.

Ma'lumot uchun aytish joizki, "AZIA METALL PROF" o'z faoliyatini 2018-yilda boshlagan. Metall quvurlar va profililar, rux va polimer

bilan qoplangan listlar, issiq o'ramali metall mahsulotlari hamda qurilish uchun profililar va armatura ishlab chiqariladi.

"O'zsanoatqurilishbank" mazkur loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlab, korxonani zamonaviy texnologik uskunalar va aylanma mablag'lar bilan ta'minlab kelmoqda.

Bank axborot xizmati.

Xizmatlar litsenziyalangan.

REKLAMA

O'zbekiston kasaba uyushmalari harakatining 120-yilligi oldidan

## SHAXMAT DOSKASI USTIDAGI QIZG'IN BAHSLAR

Mamlakatimizda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, shu jumladan, shaxmatni ommalashtirish masalalariga katta e'tibor qaratilib, keng ko'lami ishlar amalga oshirilayotir. Natijada sportchilarimiz xalqaro musobaqalarda tarixiy yutuqlarni qo'lga kiritib, yurtimizdagi dovrug'ini dunyoga yanada kengroq yoymoqda.



Albatta, mazkur yo'nalishlardagi ishlarga munosib hissa qo'shish maqsadida O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi ham turli sohalarida mehnat qilayotgan xodimlar va ularning oila a'zolarini sportga keng jalb etish, bu orqali xodimlar salomatligini mustahkamlash bo'yicha tizimli ishlarni olib boryapti. Masalan, tizimdagi Mehnat va ijtimoiy munosabatlarda akademiyasi qoshida "Shaxmat maktabi" tashkil etilgani, mehnat jamoalarida esa shaxmat klublari faoliyati yo'lga qo'yilgani fikrimiz tasdig'idir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Prezidentimizning 2023-yil 8-maydagi "2026-yil O'zbekistonda bo'lib o'tadigan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga kompleks tayyorgarlik ko'rish hamda shaxmatni ommaviy harakatga aylantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida sportning shaxmat turi bo'yicha "O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi kubogi" uchun tashkil etilgan musobaqalarda keng imkoniyatlar ishlarining uzviy davomi bo'ldi.

O'zbekiston kasaba uyushmalari harakatining 120-yilligi oldidan Kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan Sport vazirligi hamda O'zbekiston shaxmat federatsiyasi ishtirokida uyushtirilgan mazkur shaxmat musobaqasi uch bosqichda o'tkazilib, ishtirokchilarga keng imkoniyatlar yaratib berildi.

Xalqaro shaxmat federatsiyasining amaldagi qoidalariga muvofiq o'tkazilgan musobaqalarning birinchi hamda ikkinchi bosqichlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi 12 mingdan ortiq korxon, tashkilot va muassasalarda faoliyat olib borayotgan 85 ming nafardan ziyod mehnatkashlarni qamrab oldi. Quyi bosqichlarda g'oliblikni qo'lga kiritgan havaskor shaxmatchilardan 56 nafari musobaqaning respublika bosqichiga yo'llanma oldi.

Shaxmat doskasi ustidagi bahslarning final bosqichi bellashuvlari O'zbekiston kasaba uyushmalari saroyida bo'lib o'tdi.

Musobaqalarning dastlabki kuni 28 nafar ayol va 28 nafar erkak – havaskor shaxmatchilar shveysaracha usulda o'zaro kuch sinashdi. Shu taxlit musobaqalarning birinchi kuni ishtirokchilar 1-turdan 6-turgacha bo'lgan bahslarda, ikkinchi kungi bellashuvlarda esa 7-turdan 9-turgacha bo'lgan musobaqalarda rapid yo'nalishida aqliy salohiyatlarini namoyon etdi. O'ziga xos kombinatsiyalarga boy bo'lgan har bir bahs yurtdoshlarimizning shaxmat sohasida katta salohiyatga ega ekanliklarini ko'rsatdi.

Nufuzli hakamlar hay'ati tomonidan esa musobaqaning respublika bosqichi g'oliblari to'plagan ochkolari soniga qarab aniqlandi.

Tantanalil taqdirlash marosimida musobaqaning 56 nafar final bosqichi ishtirokchisiga O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan maxsus diplom hamda "Chinobod plaza" sanatoriysida dam olib, salomatligini mustahkamlashi uchun bepul yo'llanma topshirildi.

Shundan so'ng 3-o'rinni qo'lga kiritgan havaskor shaxmatchilarga 30 million, 2-o'rinni egallaganlarga 40 million, 1-o'rin sohibi bo'lgan g'oliblarga esa 50 million so'mdan pul mukofoti va medallar topshirildi.

Hakamlar hay'ati qaroriga ko'ra erkak va ayollar o'rtasidagi musobaqalar yakuni bo'yicha umumijamoa hisobida eng yuqori natija ko'rsatgan Toshkent viloyati jamoasiga "O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi kubogi" taqdim etildi. Tantanalil tadbir yakunida ishtirokchilar e'tiboriga O'zbekiston san'at ustalari ijrosidagi bayramona konsert dasturi namoyish etildi.

Shuningdek, katta sport bayramiga aylangan shaxmat musobaqalari doirasida bellashuv qatnashchilari uchun Toshkent shahri bo'yab sayohat uyushtirildi. Xususan, havaskor shaxmatchilar "Yangi O'zbekiston" bog'ida bo'lib, Mustaqillik monumenti poyiga gul qo'yishdi. "Toshkent siti" majmuasi bo'yab tashkillashtirilgan sayohat davomida bu maskanda barpo qilingan inshootlar hamda "Toshkent city mall" bilan yaqindan tanishildi.

Uch kun davom etgan sport bayrami har bir ishtirokchi hayotida unutilmas yorqin lahzalarni qoldirdi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Muhabbat O'RMONBEKOVA,  
O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi  
Matbuot xizmati rahbari.

## Bokuda Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari asosida sahnalashtirilgan spektakl premyerasi bo'lib o'tdi.

Xalq so'zi  
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Senati Kengashi

### Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi – 2 tabaq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yubkub olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:  
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;  
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.  
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbatchi muharrir N. Ostonov.  
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzil:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 21.05 Topshirildi – 00.05 1 2 3 4 5 6